

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Mavlonova

Inkluziv ta'lif o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari 214

Z.M.Xursanova

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni 219

A.B.Mirzayev

Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses 223

Sh.A.Pakirdinova

Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lif jarayonida ahamiyati 226

Sh.A.Pakirdinova

Comparative analysis of online and traditional classroom learning 231

M.M.Umaralieva

Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools 235

Z.N.Usmonov

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi 239

A.T.Akbarov

Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari 246

U.K.Rahmonov

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lif beruvchining o'mni 252

U.K.Rahmonov

Musiqa darslarida zamonaliv texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati 256

V.Abdurakhmanov

"The challenges of teaching english to international students" 261

D.Y.Irmatov

Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lif yoshidagilar "Ontogonez"iga mansub bilimlar 265

Н.Собиров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин

Инновационная педагогическая деятельность 269

IQTISODIYOT

M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadiyeva

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi 273

K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadiyeva

Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbliji va konseptual asoslari 276

FALSAFA

N.M.Axmadiyev

Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi 281

I.Toirov

Milliy davlatchilik asoslарини mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatları 284

I.A.Nurmatova

Jamiyat ma'nnaviy muhitida oila institutining roli 289

SIYOSAT

B.P.Zokirov

Jinoi aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari 293

S.M.Xoliqov

Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari 301

B.P.Zokirov

Xorijiy ilg'or tajribalar jinoi aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida 304

S.M.Xoliqov

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar 314



IJTIMOIY RIVOJLVNISH VA YOSHLARNI DUNYOQARASHIDA MANFATLAR TO'QNASHUVI.

КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ В ОБЩЕСТВЕННОМ РАЗВИТИИ И ВЗГЛЯД МОЛОДЕЖИ. CONFLICT INTERESTOV V OБSHCHESTVENNOM RAZVITII I VZGLYAD MOLODEJI.

Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrası katta o'qituvchisi, falsafa fanlari boyicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Jamiyatni ma'naviy, ma'rifiy jihatdan isloh etishda manfaatlar to'qnashuvi chiqur bilim va hayotiy saboqlarga to'la tajribalaridan samarali foydalanish tamoyili alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, Aytish kerakki, bugungi kunda dunyo aholisining tarkibida, keksa avlod vakillarining soha va tarmoqlar rivojidagi ishtiroti kengayib borayotgani yaqqlol sezilmoqda. Ayniqsa, manfaatlar to'qnashuvi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy jarayondagi faolligi, jamiyatdagi yangilanishlar va o'zgarishlar davomida uchraydigan ijtimoiy muammolar yechimidagi muhim o'ni egalaydi va tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishiga asos bo'ladi. Ijtimoiy rivojlnish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi, ilmiy salohiyatidan yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantrishda samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish vazifasi metodologik yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni kuchaytimoqda.

Аннотация

В духовно-просветительском реформировании общества особый приоритет приобретает принцип эффективного использования глубоких знаний и опыта, насыщенного жизненными уроками конфликта интересов. С этой точки зрения, Следует сказать, что сегодня в структуре населения планеты расширяется участие представителей старшего поколения в развитии отраслей и производств. В частности, конфликт интересов играет важную роль в духовно-воспитательном, воспитательном процессе, в решении социальных проблем, возникающих в ходе обновления и изменения общества, и является основой его изучения как объекта исследования. Конфликт интересов в общественном развитии и мировоззрении молодежи, задача совершенствования механизмов эффективного использования научного потенциала в формировании нравственной культуры молодежи повышают потребность в исследованиях, основанных на методологических подходах.

Abstract

In the spiritual and educational reform of society, the principle of effective use of deep knowledge and experience gained through life lessons of conflicts of interests acquires special priority. From this point of view, it follows that today in the structure of the planet's population the participation of representatives of the star generation in the development of industries and industries is expanding. In particular, the conflict of interests plays an important role in the educational-upper-educational process, in solving social problems that arise during the renewal and change of society, and its fundamental study appears as an object of research. The conflict of interests in the social development and worldview of youth, the task of improving the mechanisms of effective use of scientific potential in the formation of a natural culture of youth will increase the efficiency of research based on methodological approaches.

Kalit so'zlar: ijtimoiy rivojlanish, manfaatlar to'qnashuvi, yoshlar ma'naviyati, axloqiy madaniyat, fuqarolik jamiyatini, milliy munosabatlar.

Ключевые слова: социальное развитие, конфликт интересов, духовность молодежи, нравственная культура, гражданское общество, национальные отношения.

Key words: social development, conflict of interests, spiritual youth, moral culture, civil society, national relations.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning markazida yoshlar masalasi alohida belgilab olingan. Mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarga qancha keng imkoniyatlar yaratilsa, yurtning ertangi kelajagiga ishonch shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida yoshlarga qaratilgan davlat siyosati dinamik o'sib borganini kuzatish mumkin. Bunga javoban yoshlarimizning xalqaro maydonlarda sport, san'at, ilm-fan, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik sohalarida ulkan yutuqlarni qo'liga kiritib, yurtimiz sha'nini, dovrug'ini,

mavgeyini oshishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shmaqda. Albatta, bunday yutuqlar mamlakatda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan demokratik yangilanishlarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, ijtimoiy birdamlikni ta'minlash, millat va elatlari o'tasidagi do'stlikni kuchaytirishda milliy manfaatlarni har tomonlama hisobga olish, ularga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, yoshlarda milliy manfaatlarga sodiqlikni shakllantirish orqali ularda vatanparvarlik ruhiyatini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Yoshlarda vatan manfaatlarni qadrlash, milliy manfaatlari ustuvorligi asosidagi vatanparvarlikni shakllantirish, bu boradagi tashkiliy-huquqiy ishlarning samaradorligi tahlil qilingan. Buning uchun, avvalo milliy manfaatlari tushunchasining mazmun mohiyatini ko'rib chiqish, ungi yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishdagi o'mini yoritish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy manfaatlari deganda millatga, milliy davlatchilikka moddiy, ma'nnaviy, ruhiy va jismoniy foya, naf keltiruvchi omillar nazarda tutiladi. Demak, yoshlarda o'z mamlakatiga foya keltiradigan turli faoliyat bilan band bo'lishi, qrashlarga ega bo'lishi ham uning sadoqatini namoyon qiladi.

Manfaatlarning turli – tumanligi sabab, bu tushunchani mohiyatini oydinlashtirish lozim. Jumladan, falsafa qisqacha izohli lug'atida: "Manfaat – individ va ijtimoiy guruuhlar faoliyatining asosiy sababi. Manfaat faoliyatni keltirib chiqarib qolmay, uning yo'naliishi, vosita va shakllari, maqsadini ham belgilab beradi"[1]. Tadqiqotchi olimlar A.J.Xolbekov va T.B.Matiboyevlarning asarlarida manfaatlarni moddiy va ma'nnaviy, umumiyligini va xususiy manfaatlarga ajratishadi[2]. Boshqa bir olim B.K.Iminov fikricha: "Manfaat bu subyekt faoliyati orqali ruyobga chiqadigan qiziqishlar mundarijasidir. Ayni paytda u insoniyat subyektining tub mazmunini tashkil qiladi va shu faoliyat tufayli subyektivlik obyektivlikka o'sib boradi"[3]. Demak, milliy manfaatlari bu muayyan millat vakillarining ko'pchiligi qo'llab-quvvatlayotgan talab va ehtiyojlari yig'indisidir. Milliy manfaatlari mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa millat, xalqlarining, butun mamlakat manfaatlariiga zid bo'lmasligi kerak.

Shuningdek, yoshlarda ijtimoiy manfaatlarga doir qarashlarini ham oydinlashtirishga ko'maklashish, bu orqali jamiyatning umum manfaatlarni qadrlash, unga vatanparvarlik bilan munosabatda bo'lish ham muhim vazifalardan biridir. Chunki ijtimoiy manfaatlari milliy manfaatlardan farqli o'laroq, alohida bitta millat yoki xalq manfaatini emas, balki mamlakatdagi barcha millat, elat vakillari maqsad va intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadi, umummilliyl manfaatlari hamisha milliy manfaatlari bilan uyg'un bo'lgan. Bunda bir qancha tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, umummilliyl manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo'yish tamoyili. Umummilliyl manfaatlarni yuqori qo'yish milliy manfaatlarni cheklash, kamsitishni bildirmaydi, balki bu umumiyatning manfaatiga asoslanish, ozchilikning manfaatini ko'pchilik manfaatidan ustun qo'ymaslik demakdir.

Bugungi yoshlar vogelikni shunchaki his qilibgina qolmaydi, balki o'z manfaatlari yo'lida unga faol ta'sir ko'rsatadi, o'zlashtiradi va o'zgartiradi. Millatlar va milliy manfaatlari, milliy his-tuyg'ular mavjud ekan, milliy munosabatlar ham kun sayin e'tiborga molik masalalar, umumiylig munosabatlarni hisobga olgan holda o'z vaqtida va ijobjiy hal etilishini talab etadi. Millatlarning manfaatlariaga birdan-bir to'g'ri munosabatda bo'lish, ularni eng yuqori darajada qanoatlantirish va ana shu asosda ixtiloflar chiqaradigan har qanday sabablarini oldini olish demakdir. Shunday ekan, milliy manfaat teran ijtimoiy, psixologik hodisa bo'lib, millatlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'nnaviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Milliy manfaatlari – millatga, milliy davlatga moddiy, ma'nnaviy, ruhiy va jismoniy foya, naf keltiruvchi omillar sifatida bo'lsagina, davlat yaxlitligi, suverentetiga xavf tug'dirmaydi.

XULSA

Mamlakatimizda olib boriladagan barcha islohotlar uchun umuminsoniy qadriyatlar va umummilliyl manfaatlari ustuvorligi tamoyili asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir. Yoshlarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug'ga, hudud yoki etnik birlikka mansubligi emas, balki umum davlat darajasidagi umumiyl manfaatlarning mushtarakligi asos bo'lishi lozim. Barcha mintaqalar, etnik va ijtimoiy guruuhlarning manfaatlari o'tasida muvozanat saqlanishini hamisha hisobga olish zarur. Shuningdek, manfaatlarni ifodalash va ro'yobga chiqarishning huquqiy

FALSAFA

mexanizmni yaratish yo'li bilan millatlararo munosabatlар sohasida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Ba'zi hollarda milliy manfaatlar g'oyaviy-siyosiy mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin. Shuning uchun ham, ko'p millatli davlatimiz millatlarning sog'lom milliy manfaatlarini umummilliy darajada uyg'unlashtirishi va ularni qondirish yo'llarini izlamog'i lozim. Demak, yoshlarda umumiyllyi manfaatlar uyg'unligida rivojlanish strategiyasini singdirish, turli millat va elatlarning yagona vatan tuyg'usida erkin yashashiga imkon berish ham aslida ichki birdamlikning bir belgisi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at (Ma'sul muharrir: A. Jalilov). – B. 195.
2. Xolbekov A.J., Matiboyev T.B. Ijtimoiy adolat va demokratiya: barqaror araqqiyot yo'lida. – T.: "Yangi asr avlod", 2004. – B. 102.
3. Иминов Б.К. Манфаатлар – сиёсат ва мафкура. – Т.: Минхаж, 2002. - Б. 13 – 14.